

Abdullayeva Shaxnoza Erkinovna,
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va
mamlakatshunoslik fakulteti,
“Osiyo Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlari
va mamlakatshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi
Tel: (99890)9718989

OSIYO TINCH OKEANI MINTAQASI DAVLATLARIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalash TIZIMI MUAMMOLARI

Annotasiya. Мақолада ОТО минтақаси мамлакатларида аҳолини ижтимоий ҳимоялаш тизимидағи муаммолар таҳлил қилинган бўлиб, хусусан пенсия та’миноти муаммоси атрофлича ёритилган. Шунингдек, ушбу минтақада ижтимоий ҳимоя, пенсия тизими ҳамда соғлиқни сақлаш ва суғурталаш тизимларини янада ислоҳ қилиш бўйича тегишли хулоса ва тавсиялар берилган.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy hizmat, ishsizlik nafaqasi, pensiya tizimi, sog‘liqni saqlash va sug‘urtalash, aholi hayot farovonligi, ijtimoiy kafolat.

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы социальной защиты, в частности проблемы пенсионной системы стран Азиатско-Тихоокеанского региона. Работа дает теоретические и практические выводы и рекомендации по развитию системы социальной защиты в этом регионе.

Ключевые слова: социальная защита, социальная помощь, социальное страхование, социальное обеспечение, уровень жизни, пенсионная система, благотворительность

Annotation. The article considers the problems of social defense, in particular the problems in the pension system of the counties of Asia-Pacific region. The work gives theoretical and practical conclusions and recommendations to develop social defense system in this region.

Key words: social policy, social defense, unemployment insurance, living condition, pensions, health care, social housing, family policy, social care, education policy and labor issues.

Jamiyatda ijtimoiy muammolarni hal etishda eng muhim o‘rin davlatga tegishli bo‘lib, u ijtimoiy siyosatning umumiy konsepsiysi va asosiy yo‘nalishlarini shakllantiradi, qonuniy va huquqiy asosni ta’minlaydi. Ijtimoiy siyosat deganda, davlat tomonidan amalga oshiriluvchi, jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni, aholi hayoti farovonligini, huquqiy himoyani ta’minalashni va ijtimoiy kafolatlarni yaratish bo‘yicha tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- jamiyat ehtiyojlari va daromadlarining maqbul tarkibini shakllantirish;

- jamiyatning barcha a'zolari ijtimoiy himoyalanganligini ta'minlash;
- aholi mehnat faoliyatini faollashtirish, maqbul bandlikni ta'minlash;
- ijtimoiy soha, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- shaxsiy, jamoa, ijtimoiy manfaatlarni muvofiqlashtirish.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordamni qamrab oladi. Ijtimoiy himoya davlat, mahalliy byudjet, aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun maxsus tashkil etilgan jamg'armalar va nodavlat jamg'armalar hisobidan amalga oshiriladi. Aholini ijtimoiy himoyasi alohida fuqarolar va aholining yordamga muhtoj guruhlarini me'yoriy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-texnik vositalar yordamida qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatish orqali belgilanadi. Ijtimoiy himoyaning asosiy tamoyillari insonparvarlik, ijtimoiyadolat, manzillilik, majmuaviylik, shaxs erkinligi va huquqiy ta'minotdan iborat. Ijtimoiy ta'minotni rivojlantirishning asosiy shartlari mulkchilik shaklining o'zgarishi, jamiyat a'zolari o'rtasida yangi munosabatlarni shakllanishi va xizmat hamda moddiy boyliklarni taqsimlash tizimining o'zgarishi, jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi va boshqa qator ijtimoiy muammolar (ishsizlik, qarilikda ijtimoiy himoyani kafolatlash, tibbiy xizmat, ta'lim olish uchun xarajatlarning zaruriy darajasi, aksiyalardan dividend ko'rinishida daromad olish imkoniyatlari va h.k.)ni hal etish, shuningdek, inson huquqlari va erkinligini ijtimoiy himoya qilishning qonuniy asoslarini ta'minlashdan iborat.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning muhim tarkibiy qismi – ijtimoiy vazifalar organlari instituti hisoblanadi. Ular faoliyatining maqsadi – tashkiliy tizimning turli tarkiblari o'rtasida barqaror va tartibli aloqalarni o'rnatishga yo'naltirilgan davlat siyosatini o'tkazish, jamiyatda muqobil ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish, fuqarolarni ularning ehtiyojlarini qondirish maqsadida hayot boyliklari bilan ta'minlash, boshqaruvning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashdan iborat. Aholini ijtimoiy himoya qilish organlari ishining samaradorligi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy rivojlanish muammolarining hal etilishida, jamiyat barqarorligini ta'minlanishida namoyon bo'ladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqaruv obyektlarini insonlar o'rtasidagi munosabatlarni, mazkur tizimning muassasa va tashkilotlari, mehnat va o'quv jamoalari tashkil etadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish aholining turli guruhlari ehtiyojlarini qondirishga qratilgan ijtimoiy himoyaning, fuqarolarning ta'minot huquqining asosiy iqtisodiy va huquqiy kafolatlarini o'z ichiga olgan yaxlit, ko'p taraflama va samarali tizimini yaratish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasida hayotimizning barcha sohalari kabi ijtimoiy sohalarda ham chuqur o'zgartirishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy talabidir.

Bugungi kunda pensiya tizimi va boshqa sug'urtalash tizimlari aholining ijtimoiy boylikka yetishishining sermehsul mexanizmi deb tushunamiz. Biroq, bu mexanizm jamiyatdagi barcha qatlamlarning turmush darajasiga birdek ijobjiy ta'sir etmaydi. Ushbu muammoni hal etishda jahon tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

OTO mintaqasida butun dunyo aholisining eng katta qismi jamlangan bo'lib, aholining turmush darajasi oshgani sayin, o'rtacha umr ko'rish yoshi o'sib

bormoqda va, aksincha, tug‘ilish esa kamayish tendensiyasini namoyish qilmoqda. Shu sababli yaqin kelajakda qariyalar soning keskin oshishi xavfi mintaqqa uchun hal qilinmagan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Aholining qarish jarayoni mintaqada 2010-2030-yillarda o‘zining eng yuqori darajasiga erishishi bashorat qilingan edi va bu amaliyotda o‘z isbotini topmoqda.¹ Hozirda mintaqqa mamlakatlari oldida yaqin kelajakda yuz berishi kutilayotgan ijtimoiy himoya tizimining eng muhim dastagi hisoblangan pensiya ta’minoti bilan bog‘liq muammolarni hal etish vazifasi turibdi. Hatto sharq mamlakatlarining iqtisodiyot sohasidagi lideri bo‘lgan Yaponiya ham bugungi kunda iqtisodiy inqiroz bilan yuzlashmoqda, ammo bunga qaramasdan Yaponiyada nafaqa tizimi mintaqadagi boshqa mamlakatlar bilan qiyoslaganda aholi uchun yuqori ijtimoiy farovonlikni ta’minalashga xizmat qiladi.

OTO mintaqasi davlatlarining pensiya tizimi tuzilish jihatidan bir-biridan anchagina farq qiladi: Yaponiya va Koreya Respublikasida ushbu tizim ham konservativ ham liberal model xususiyatlariga ega, Gong Kongda esa klassik uch bo‘g‘inli pensiya tizimi mavjud; Tayvanda qat’iy o‘rnatilgan majburiy kasbiy nafaqa mavjud xolos; Singapur va Malayziyada kelajak uchun majburiy jamg‘arma fondlari tashkil qilingan; XXRda esa pensiya tizimining muhim elementi bo‘lib davlat ijtimoiy sug‘urta nafaqlari hisoblanadi. Sanoati taraqqiy etgan Yaponiya, Koreya Respublikasi, Avstraliya va Yangi Zellandiya mamlakatlarida nafaqa miqdorlari anchagina yuqori ammo Hindiston, Shri-Lanka va Pokiston kabi mamlakatlar yuqori ishsizlik darajasi va past miqdordagi pensiya ta’minoti tizimi bilan xarakterlanadi.²

Koreya Respublikasining ijtimoiy himoya siyosati deganda, aynan shu mamlakatning aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minalaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlari majmuidan iborat bo‘lib, bunda Koreya Respublikasining davlat va jamiyatining yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari, bilan yetarli ta’minalanganlik tufayli yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligi tushuniladi. Koreya Respublikasining asosiy maqsadi, aholi farovonligini to‘xtovsiz yaxshilanishini ta’minalash, aholi qatlamlarini ta’lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan, keskin tafovutlarga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta’minalashga yordam berishdan iborat. Koreya Respublikasi ijtimoiy himoya tizimining asosiy yo‘nalishlari:

- erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishni ta’minalash;
- ish bilan bandlik;
- kasb tanlash, o‘qish va bilim olish;
- daromadlarning ta’minalishi;
- har bir fuqaroning o‘z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo‘lishi;
- iste’molchilar himoyasi, iste’molchilar jamiyat;
- tovarlar va xizmatlar sifati, iste’mol sifatini ta’minalash;

¹OECD. *Pensions at a glance: Asia/Pacific*. OECD publishing, 2015

² Pension system in Japan: need for reforms, Audrius Bitinas, 2016

- aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish;
- ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj kam ta'minlangan qismiga pensiyalar, nafaqalar, turli hil imtiyozlar berishdan iborat.

Koreya Respublikasi o'zining mustaqilligini qo'lga kiritgan (1953) yildan boshlab ijtimoiy siyosatning turli qatlamlaridagi mavjud muammolarni hal qildi. Koreya Respublikasida 1953- yilda uchta qonun qabul qilingan.

1. Kasaba uyushmasini tuzish haqidagi qonun
2. Mehnat haqidagi qonun
3. Mehnat bozoridagi muammolarni hal qilish haqidagi qonun

Tarixdan ma'lumki, Koreyada sog'lijni sug'urtalash kabi ijtimoiy siyosat dasturlari yuqori darajada markazlashgan tizimda ish yuritadi. Shunday qilib, barcha sog'lijni saqlash siyosati qarorlari an'anaviy ravishda Sog'lijni Saqlash, Farovonlik va Oilaviy Tadbirkorlik Vazirligi kabi markaziy davlat organlari qo'lida bo'lgan. Haqiqatdan ham, bu vazirlik to'g'ridan to'g'ri sog'lijni sug'urtalash siyosatini o'z ichiga oladi: Milliy Sog'lijni Sug'urtalash Korporatsiyasi va Sog'lijni Sug'urtalash va Tavtish Qilish Xizmatini boshqaradi, turli davlat subsidiyalarini ajratadi, Milliy sog'lijni sug'urtalash qonuni doirasida asosiy strategiyalarni ishlab chiqadi.

Janubiy Koreya sog'lijni saqlash tizimini moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor birgalikda ishtirok etadi. Sog'lijni salash fondlari bir xil ahamiyatga ega bo'lgan ikki manbadan to'ldiriladi: sog'lijni sug'urtalashdagi majburiy to'lovlar va bemorlar davolanish paytidagi joriy to'lovlar. Sog'lijni saqlash xizmatiga mas'ulligi tufayli davlat so'lijni saqlashni moliyalashtirishda yirik subsidiyalar ajratadi. Butun aholi qatlamini qamrab olgan Milliy Sog'lijni Sug'urtalash asosan ishchilar, ish beruvchilar va o'z-o'zini ish bilan ta'minlaganlar(davlat xodimlariga ish beruvchi sifatida davlatni ham o'z ichiga oladi) to'lovlarini orqali moliyalashtiriladi. Moliyalashtirishning 36%ga yaqini xususiy sektor hisobiga to'g'ri kelib, ular bemorlarning to'g'ridan to'g'ri to'lovlarini va xususiy sog'lijni sug'urtalash to'lovlarini ko'rinishida bo'ladi. Bundan tashqari qashshoq aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi Tibbiy Yordam Dasturi mavjud bo'lib, u markaziy va mahalliy davlat organlari tomonidan moliyalashtiriladi. Davlat Tibbiy Xizmatlari Barcha aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatsa, Tibbiy Qo'llab-quvvatlash Dasturi esa xorijiy ishchilar va doimiy yashash joyiga ega bo'lмаган aholiga davlat yoki xususiy markazlar orqali shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatadi.⁴

Koreya hukumatining ommaviy ishlarga tegishli dasturlarni qayta tuzishidan yana bir asosiy maqsadi bu kam daromadli aholini ommaviy ishlarga jalb qilishdir. Masalan: asosan ishlab chiqarish yo'nalishlarida, ijtimoiy soxadagi infrastrukturalarni ta'mirlash, reklama dasturlarida ishtirok etish, va jamoaviy ishlarga ishsiz aholini jalb qilishdan iborat. Koreya Respublikasi 15 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan ishsiz aholisining barchasi bunday maxsus ishlarda ishslashga doimo tayanishlari mumkin. Lekin 2013 yilda yangi qonun qabul qilinib unda:

³ Koreya Respublikasi Milliy himoyalash Vazirligi veb-sahifasi <http://www.undp.org/mdg/>

⁴ "Korea today" gazetasi. Koreya. 2015, №9 29-36 b.

mehnat birjalariga a'zo bo'lmagan, hamda o'rnatilgan daromadi bor aholi bu dasturlarga kiritilmasligi ko'rsatilgan.

2014-yildan boshlab, ishsizlik sonini kamayishi bilan ushbu jamoaviy ishlar bilan ta'minlash dasturlari kamaya boshladi. Xususan, ular o'rnida kompyuterlashtirish va o'rmon soxasi bo'yicha dasturlar tashkil etildi. Mamlakatning kam daromadli hamda ishsiz aholisi oilalarning farzandlari o'rta va yuqori ta'lim to'lovlardan ozod etiladi hamda bepul tushlik bilan ta'minlanadi. Hukumat tomonidan kiritilgan yana bir yangiliklardan biri bu ishsizlarga kredit ajratish ishlari bo'lib, bunda asosan, korxonalarining tanazzulga uchraganligi sababli na nafaqa na oylik daromadini olmaydiganlarga hukumat oylik fondidan nafaqa va oylik ajrata boshladi.

Koreya Respublikasi ijtimoiy himoya siyosatida yana bir muhim bo'g'in mavjud, unda mehnat bozorining faoliyati yaqqol nazorat qilinadi. Shuningdek undagi har bir ishsiz fuqaro haqida to'liq ma'lumot mavjud bo'lib, u orqali ish bilan ta'minlovchilar konyukturnasi, kadrlar tayyorlash kabi axborotlar saqlanadi.

Yangi iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar OTO mintaqasi davlatlari pensiya tizimini qaytadan isloh etishga undamoqda. Jahon Banki tomonidan taqdim etilayotgan OTO mintaqasi mamlakatlari pensiya tizimiga aloqador bo'lgan axborotlar tahlili ushbu mamlakatlar Yevropa davlatlari yo'l qo'ygan xatolarni takrorlamaslik uchun pensiya tizimlarini qaytadan isloh etishlari va zaruriy o'zgarishlar kiritishlari lozimligini ko'rsatmoqda. Ya'ni, ushbu tizimning ko'lамини yanada kengaytirish, erta nafaqaga chiqish holatlarini kamaytirish, xususiy nafaqa fondlarini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash, shuningdek, nafaqa miqdorini o'rtacha umr ko'rish yoshi formulasi orqali hisoblashni joriy qilish asosiy zaruriy chora-tadbirlardan bo'lib hisoblanadi.⁵ Hozirda mintaqada pensiya ta'minoti bilan bog'liq jarayon – aholi katta qismining qarib borayotgani, noodatiy bandlik turining o'sishi va natijada pensiya uchun ulushlarning qisqarishi, nafaqa ta'minoti ko'laming oshayotgani, sanoatlashish va urbanizatsiya jarayonining jadallahushi natijasida aholining yashash va ijtimoiy xarajatlarning oshishi va oqibatda nafaqalarni ham oshirishga bo'lgan zaruriyatning paydo bo'lishi kabi muammolar bilan xarakterlanadi.⁶

Mazkur holatdan kelib chiqqan holda, xalqaro tashkilotlar Osiyo mintaqasi uchun ijtimoiy islohotlarining asosiy stategiyalarini quyidagicha taklif etadi:⁷

- faol bandlik yoshini uzaytirish, nafaqa yoshini kechiktirish;
- aholi shaxsiy daromadlarini inflatsiyadan himoyalash;
- daromad taqsimlanishi modelini qayta ko'rib chiqish va kambag'allikka qarshi kurashni kafolatlash;
- pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash;
- mehnat bozori samaradorligini ta'minlash.

⁵World Bank. *Pensions in Asia/Pacific*, January 2016

⁶Pacific Economic Council. *Towards a more resilient society*. Tokyo: Japanese Institute of International Affairs, 2010

⁷Pension system in Japan: need for reforms, Audrius Bitinas, 2016

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va o'sib borayotgan davlat qarzlari nafaqat OTO mintaqasi davlatlari uchun, balki Yevropa va AQSh uchun ham katta muammodir.

Mamlakatlar davlat qarzlarining YaIMga nisbatan ulushisi

	2010	2016
Yaponiya	198%	246%
Gretsiya	129%	197%
AQSH	93%	105%
Fransiya	92%	97%
Buyuk Britaniya	81%	81%

Yaponiyada davlat qarzlarining o'sishi 1990-yillardagi iqtisodiy inqiroz, "Sovun pufaklari samarasi"dan boshlab avj oldi. Shu yillarga kelib mamlakatda aktivlarning narxlari keskin qisqardi. Hukumatning molivaviy sohani mustahkamlash uchun urunishlari samara bermadi, davlat qarzları qisqarmadi, aksincha, ortdi. Hozirda ham hukumat bu muammoning yechimini topa olganicha yo'q.⁹ Shuningdek, 1990-yillarda tug'ilish darajasining o'ta pastligi va farovon turmush tarzi asnosida erishilgan uzoq umr ko'rish ko'rsatkichi bugungi kunda o'zining aks ta'sirini ko'rsatmoqda. Yaponiya aholisining katta qismi keskin qarimoqda. Bu esa jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, ya'ni, bu holat hukumatni pensiya tizimida yanada murakkab va yuqori bosimli islohotlar o'tkazishga majbur qiladi. Davlat pensiya tizimidagi o'sib borayotgan diffitsitni to'xtatish uchun nafaqat beriladigan pensiya to'lovlarini miqdorini pasaytirmoqda va band aholi qatlami tomonidan to'lanadigan nafaqa uchun ulushlarni oshirmoqda, balki ushbu tizimdagi boshqa parametrarga tegishli o'zgartirishlar kiritmoqda. Xususan, 2004-yilda demografik holatning o'zgarishi bilan avtomatik tarzda miqdori ham o'zgarib hisoblanuvchi pensiya indeksatsiyasiga o'tildi, nafaqa miqdorining minimal qiymati belgilab qo'yildi, pensiyaga chiqish yoshi uzaytirildi va boshqalar.

Yaponiyada nafaqalar uchun ijtimoiy xarajatlar YaIMga nisbatan 1970-yilda 1.1% ni tashkil qilgan bo'lsa, 1990-yilda 5.3%, 2005-yilda 9.2%, 2015-yilda esa 9.5% ni tashkil qildi. Hukumat ko'rayotgan chora-tadbirlar natijasida bu ko'rsatkich 2025-yilga kelib 8.3% qisqarishi bashorat qilinmoqda. Ma'lumot o'rnida ta'kidlab o'tish lozimki, Yaponiyada o'rtacha sof pensiya miqdori nafaqaxo'ming oldingi maoshining 39.7% iga teng. Ijtimoiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT)ga a'zo mamlakatlarda bu miqdor o'rtacha 50% ga teng.¹⁰

Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu mamlakatda tug'ilish darajasi ham anchagina past. 1975-80-yillarda fertillik koeffitsenti Yaponiyada 1.83 ni tashkil

⁸Oshio, T.; Oishi, A. S.; Shimizutani, S. Social security reforms and labour force participation of the elderly in Japan. *The Japanese Economic Review*. 2014

⁹Pension system in Japan: need for reforms, Audrius Bitinas, 2015

¹⁰Fukawa, T. The effects of the low birth rate on the Japanese social security system. *The Japanese Journal of Social Security Policy*. 2008

qilgan bo‘lsa, IHTTga a’zo mamlakatlarda o‘rtacha 2.26ga teng bo‘lgan. 2005-2010-yillarga kelib esa 1.27 ga tushib ketdi (IHTTda o‘rtacha 1.69). Ammo 2050-yilga kelib fertillikkoeffitsenti Yaponiyada 1.6 ga, IHTT mamlakatlarida o‘rtacha 1.8 ga ko‘tarilishi bashorat qilinmoqda.¹¹

Yaponiyada pensiya tizimi va islohotlari. 1985-yilda Yaponiya o‘zining zamonaviy ijtimoiy sug‘urta va pensiya tizimini yaratdi. Unga ko‘ra pensiya tizimi uch turdan:¹²

1. Asosiy jamg‘arib boriluvchi **milliy pensiya** (yagona stavkada);
2. Majburiy **kasbiy pensiya** (oylik maosh miqdori bilan bog‘liq);
3. **Xususiy jamg‘arma fondlaridan** iborat.

Shuningdek, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik uchun to‘lanuvchi nafaqalar mavjud. Milliy va Kasbiy pensiya tizimiga a’zo bo‘lish va har oy ulush to‘lovlari to‘lash davlat va xususiy sektor ishchilar uchun majburiydir. Fermerlar, talabalar, o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlovchilar va ishsizlar faqat Milliy pensiya tizimi badallariga jalb qilinadilar. Xususiy fondlarda kelajak uchun rezerv jamg‘arib borish barcha uchun ixtiyoriy.

Yaponiya pensiya tizimining o‘ziga xos jihatlari:¹³

- Yaponiya rezidenti sifatida ro‘yhatdan o‘tgan va 20-59 yoshdagi barcha shaxslar, millatidan qat’iy nazar, qonuniy asosda **Milliy Pensiya** tizimidaqatnashishgava ulush to‘lovarini to‘lashga majbur.
- davlat pensiya tizimi (MP tizimi bilan birga) avlodalararo qo‘llab-quvvatlash mexanizmi orqali bir butun jamiyat sifatida o‘zaro moliyaviy ko‘mak berish maqsadida o‘rnatilgan.
- davlat Pensiya tizimi qarilik pensiyasini, shuningdek, moliyaviy tanglikni keltirib chiqaruvchi kutilmagan fojiyalar sodir bo‘lganda nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha nafaqalarini ta’minlaydi.
- Yaponiya hukumati nafaqa to‘lovarining bir qismini subsidiya orqali ta’minalashni o‘z zimmasiga oladi.
- shaxslarning davlat pensiyasiga ulushlari “ijtimoiy sug‘urta ulushi” sifatida soliq qisqartmalariga asos bo‘ladi.

Birinchi turdagи pensiya – jamg‘arib boriluvchi milliy pensiya (Kokumen Nenkin) O‘zbekistondagi Shaxsiy Jamg‘arib Boriluvchi Pensiya (ShJBP)ga to‘g‘ri keladi. Ammo O‘zbekistondan farqli ravishda bu nafaqa turi aholining shaxsiy daromadlari miqdoriga bog‘liq emas. Jamg‘ariluvchi ulush aniq belgilangan stavkada yig‘ib boriladi. Bu miqdor 2015-yil apreldidan 2016-yil martigacha oyiga 15590 ₯ qilib belgilandi. Har bir oyning to‘lovi shu oyning oxiriga qadar amalga oshirilishi lozim. To‘lov bank va boshqa moliyaviy institutlar, pochta offislari orqali naqd pul yoki avtomatik bank transferlari yo‘li bilan to‘lanishi mumkin. Muddatidan oldin to‘langan ulushlar uchun maxsus chegirmalar mavjud. Shuningdek, kam daromadli shaxslar va talabalar oylik badallardan qisman yoki butunlay ozod qilinishlari mumkin. Buning uchun fuqarolar mahalliy idora

¹¹OECD. *Pensions at a glance*. OECD publishing, 2014

¹²Pension system in Japan: need for reforms, Audrius Bitinas, 2015

¹³www.nenkin.go.jp

ofislariiga murojat qilishlari zarur. Shundan so‘ng ularning oylik daromadlari o‘rganib chiqiladi va 25%, 50%, 75% va 100% lik chegirmalar beriladi. Agar shaxsning ishsiz turmush o‘rtog‘i mavjud bo‘lsa, u ham oylik badallardan butunlay ozod etiladi.¹⁴

To‘lanadigan nafaqa miqdori agar shaxs 65 yoshga to‘lgan va kamida 40 yil mobaynida ulush to‘lagan bo‘lsa yiliga 780100 ₩ ni tashkil qiladi (2015). Ushbu miqdor mamlakatda o‘rtacha yillik ish haqining 15% ga teng. Aslida bu turdag'i nafaqani olish uchun minimal yosh 60 yosh va eng kamida 25 yil mobaynida ulush to‘lagan bo‘lish kifoya, ammo nafaqa miqdori ham shunga mos ravishda kamroq bo‘ladi va, aksincha, 65 yoshdan so‘ng ham ishlagan shaxslar uchun bu miqdor yanada oshadi.¹⁵

Ikkinchি turdag'i pensiya – Kasbiy pensiya tizimi – shaxsning daromadiga bog‘liq bo‘lib avtomatik tarzda kelishuv asosida ish beruvchi tomonidan xodimning maoshidan ushlab qolinadi va ulush sifatida budgetga o‘tkaziladi. Bu turdag'i nafaqaning miqdori (Milliy Pensiya miqdoridan holi ravishda) o‘rtacha yillik ish haqining 28.5%iga teng. Bu turdag'i nafaqani olish uchun shaxs 20 yildan 40 yilgacha ishlagan va oylik badallarni to‘lagan bo‘lishi shart.¹⁶ Oylik badal miqdori 2017-yilda kishi maoshining 18.3%iga ko‘tarilishi kutilmoqda.

Kasbiy nafaqa rezervidan nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha nafaqa turlari ham qoplanadi.¹⁷

1.Nogironlarga:

1-guruh nogironlariga yiliga – 975100 ₩;

2-guruh nogironlariga yiliga – 780100 ₩;

2.Boquvchisini yo‘qotganlarga:

Shaxs vafot etsa, uning yosh bolali turmush o‘rtog‘iga yoki farzandining o‘ziga – 1004600 ₩ miqdorida nafaqa puli to‘lanadi.¹⁸

Shuningdek, bu zaxira fondi ijtimoiy farovonlik dasturlarini (yo‘llar, temir yo‘llar, aeroportlar va boshqa davlat loyihalari qurish) ham qoplab beradi.

Uchinchi turdag'i pensiya xususiy jamg‘arma fondlarini o‘z ichiga oladi. Nafaqa miqdori nafaqadagi shaxsning muqaddam qancha muddat davomida va qancha miqdorda ulush to‘lovlarini amalga oshirganiga bog‘liq. Bu turdag'i pensiya tizimida ham jamg‘arma fondi, ishchi va ish beruvchi o‘rtasida shartnomaga muvofiq xodimning maoshidan ish beruvchi firma tomonidan belgilangan foizda jamg‘arma fondiga ulush badallari o‘tkazib boriladi. Odatta bu miqdor 4%ni tashkil qiladi. Xususiy jamg‘arma fondlariga aholi vakillari 25 yoshdan 65 yoshgacha a’zo bo‘lislari mumkin.¹⁹ Bu turdag'i fondlarga a’zo xodimlarga ma’lum soliq chegirmalari beriladi. Lekin aniq indeksatsiya mavjud emas. Shaxs nafaqa yoshiga yetganda yig‘ilib qolgan nafaqa pulini birta marta hammasini olishi yoki yillik to‘lovlar asosida bo‘lib-bo‘lib olishi mumkin.

¹⁴www.nenkin.go.jp

¹⁵www.nenkin.go.jp

¹⁶Pension system in Japan: need for reforms, Audrius Bitinas, 2014

¹⁷www.nenkin.go.jp

¹⁸www.nenkin.go.jp

¹⁹Pension system in Japan: need for reforms, Audrius Bitinas, 2012

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya pensiya tizimi ham konservativ ham liberal model xususiyatlarini o‘zida namoyon qiladi. Davlat ushbu tizimni kafolatlovchi subyekt ekanligi, maosh miqdoriga bog‘liq pensiya turining mavjudligi va majburiy badallar undirilishi jihatidan u konservativ modelga xos desak, ixtiyoriy fondlarning faoliyatini liberal model xususiyati sifatida ta’kidlash mumkin.²⁰ O‘zbekistonda esa hozircha Yaponiyada mavjud birinchi va ikkinchi turdag'i pensiya tizimlari mavjud. Xususiy nafaqa fondlari hali shakllanganicha yo‘q. Shuningdek, bizda ShJBP miqdori yagona stavkada jalb qilinmaydi, balki xodim maoshining 1% ini tashkil qiladi, xolos. Davlat pensiyasi uchun badallar esa oylik maoshning 7%iga teng.²¹ Bu ko‘rsatgichlar Yaponiya bilan taqqoslaganda juda ham kichik. O‘zbekiston pensiya tizimidagi joriy holat aholining katta qismini yoshlар tashkil qilishi va nafaqa oluvchilarning soni kamligi bilan izohlanadi.

Bugungi kunda jahondagi barcha mamlakatlar o‘zini ijtimoiy qatlamini himoya qilish yo‘llarini izlaydi va qolaversa har bir mamlakat o‘zigagiga xos bo‘lgan o‘zining chegaralari ya’ni hududidagina dolzarb bo‘lgan masalalardan kelib chiqgan holda mamlakat milliy himoya tizimi siyosatini yuritadi. Bugungi kunda deyarli barcha davlatlarda ishsizlikni o‘sishi, ishsizlikni yoshlар hamda qariyalar orasida ham ko‘payishi, aholini kam daromadli qismini tobora ko‘payishi kabi muammolarga yuz tutmoqda. Koreya Respublikasi Nafaqa fondi o‘zining sug‘urtalash tizimini qo‘llashga muvaffaq bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham aynan mehnat bozorini sug‘urtalash ishlarini olib borishimiz mumkin. Koreya Respublikasida bundan tashqari qator ishsiz aholi bo‘yicha axborotlarni yig‘uvchi hamda shahar va mahalliy ish fondiga xabar berib turuvchi tashkilotlar tuzish ham juda ma’qul chora-tadbirlardan biri ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, Koreya Respublikasida har bir korxonada davlat tomonidan kiritilgan qonun asosida ishga nogironlarni olishi natijasida davlat tomonidan rag‘batlantirilishi holati yana ham ish beruvchilarни jonlantirishini kuzatamiz.

Koreya Respublikasi ijtimoiy sug‘urtalash tizimini o‘rganar ekanmiz, benihoya Koreya hukumatining vaqtincha ishsizlar hamda umuman ishsiz qolgan aholini ish bilan ta’minalash maqsadida, davlat tomonidan qator jamoat ishlariga bo‘lgan takliflarni, qolaversa kompyuter bepul kurslarini o‘qitib natijada sertifikat olgan fuqarolarni ish bilan ta’minalashi, ishsiz yoshlarni esa maktab o‘qituvchilariga assistent sifatida ishga yollashi juda maqul chora- tadbirlardan biri deb o‘ylayman. Qolaversa, ishsiz aholiga mamlakat Sug‘urta fondidan 1 oydan 3 yilga qadar ishsiz fuqaroga har oyda 900 ming Vong miqdorida mablag‘ to‘lanishi Koreya Respublikasi ijtimoiy sharoiti rivojlangan mamlakatlardan qolishmasligini tasdiqlaydi. So‘nggi yillarda Koreya Respublikasida ishsizlik darajasi o‘rtacha 3% ni tashkil etmoqda, bu ko‘rsatgich Ispaniya hamda Fransiyada 10% ni tashkil etmoqda. Ushbu ko‘rsatgichdan bizga ma’lumki, Koreya hukumati Ijtimoiy himoyalash siyosati ijobjiy natijalarga olib kelmoqda. Mamlakatimizga biz Koreya Respublikasining 2010-yilda ISSA tashkiloti bilan xamkorlikda qo‘llagan dasturini ko‘rib chiqishimiz mumkin. Ushbu dastur nihoyatda foydali tarafi shundaki,

²⁰www.us-japan.org

²¹O‘zbekiston hukumat portalı

Koreyadagi mavjud barcha katta hamda kichik korxonalar unda ishtirok etgan. Ya’ni bu dastur Koreyaning 15 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarini ish bilan ta’milanishi uchun alohida e’tibor qaratadi. Koreyada ishsizlik asosan kichik va o’rtalig’i biznes tadbirkorlarining ishchilari defitsitida namoyon bo‘ladi. Demak dastur davomida Koreya hukumati yoshlar mакtabni tamomlagach to‘g‘ri 80% yoshlar oliy o‘quv yurtlariga kirishi natijasida institutlarini tamomlagach, albatta yirik korxonalarga kirishga harakat qilishlari, lekin yirik korxonalar hamma talabalarni teng ravishda ishga ololmasliklari sababli davlat tomonidan ta’lim tizimiga tegishli yangi qonun ishlab chiqilishi e’tborni tortadi. Natijada yoshlar orasidagi ishsizlik darajasi keskin qisqarganini kuzatamiz.